

BUXORO HUKMDORI DONIYOL OTALIQNING MUARRIX FARZANDI

Sherxon QORAYEV,

*Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti
dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*

Mang'itlar sulolası vakili Muhammad Ya'qub Kenja Ali Mirzo Buxoriy (1771 – 1831) o'z davrining mashhur tarixchi olimi bo'lgan. U taxtga o'tirmagan. Buxorolik tarixchi olim va shoir Muhammad Ya'qub to'ra Doniyolbiy otaliq (1758-1785) ning o'n ikkinchi o'g'li (boshqa bir ismi Kenja Alibek) bo'lgan.

U ajoyib shoir bo'lgan. Sadriddin Ayniy "Namunai adabiyoti tojik" asarida o'zbeklarning mang'itlar sulolası vakili Aliy taxallusli Muhammad Ya'qub Buxoriyning sohibdevon shoir ham bo'lganini yozgan:

*Ey dil kudurati amal az hastii tu bud,
Az sozi nesty tani mo ro'hparvar ast.
Umrest shud, Aly, ki burun n-omady zi g'am,
Go', in shaqiqa to kayu to chand bar sar ast?*

(Mazmuni: *Ey dil, qudrat kuchi sening borligingdan edi, Bizning tanimiz hech narsadan ilhomlanmagan. Ko 'p bo'ldi, Aliy, boshing g'amdan chiqmadi, Xo'sh, bu hol qancha davom etadi?*)

Akademik Bo'riboy Ahmedov Muhammad Ya'qub ibn Amir Doniyolbiyning "Gulshan al-muluk" nomli tarixiy asari haqida to'xtalgan. Navro'zbek Karimov ham o'zining "Amir Haydar davrida Buxoro amirligida siyosiy vaziyat" nomli maqolasida tarixchi Muhammad Ya'qub Buxoriy ibn Amir Doniyolbiy qalamiga mansub asar nomini "Turkiston al-muluk" deb keltirgan. Tarixchi olim Halim To'raev esa asar nomini "Gulshan ul-mulk" deb zikr etgan. Uning "Gulshan ul-mulk" ("Podshohlar gulshani") nomli tarixiy asari 1825 – 1831 yillarda yozilgan bo'lib, o'z mazmuni va yozilish uslubi bilan 18-asr oxiri va 19 asr 1-yarmida yaratilgan tarixiy asarlardan farq qiladi. Asarning 1 – qismida Buxoroning qadimiy tarixi, uning hukmdorlari shajarasi bayon qilingan, 2 – qismi esa shahzoda yashagan davr tarixiga bag'ishlangan. ("Gulshan ul-mulk"da) O'zining kelib chiqishi va ijtimoiy mavqeiga ko'ra, muallif voqealarni erkin va to'liq bayon eta olgan, buni saroy tarixchilaridan kutish qiyin edi, albatta. Negaki, saroy tarixchilari odatda o'z hukmdorlarining xatti – harakatlarini oqlash, ulug'lash va maqtashga urg'u bergenlar.

"O'zbekiston tarixiga oid manba va tadqiqotlar (XIX-XX asr boshlari)" kitobida yozilishicha, "Gulshan ul-muluk" asari o'zining sodda bayoni, aniq sana va faktlarga boyligi bilan ajralib turgan. Ayniqsa, mang'itlar va ular bilan qarindosh bo'lgan beklarga oid shajaraviy ma'lumotlar boshqa manbalarda bunday to'liq shaklda uchramasligi bilan e'tiborga loyiq. Muhammad Ya'qub Buxoriyning "Gulshan ul-

muluk” asarida mang‘itlar haqida shunday yoziladi: “*Mang‘itlar hozir o‘n ikki ming (asar 1828 yil yozilganini hisobga olsak, shu davrlar nazarda tutilmoxda) uylik bo‘lib, bir necha urug‘larga bo‘linadi (to‘qmang‘it, qoramang‘it, oqmang‘it va h.k.): Birinchisi, to‘qmang‘it, ular ming uylik kishi bo‘lib, ular (ham) 4 firqaga bo‘linadi. Birinchi firqa sultonlar, ular uch yuz uylik. Sultonlar firqasining o‘zi ham 2 firqadir. Birinchisi – bekjami, amirlar (Buxoro amirlari) shu firqadan. Ular ikki yuz uylik kishi bor. Ikkinchisi – boyjami. Ular mang‘it akobirlari bo‘lib, yuz uylik kishi bor*”. Muhammad Ya’qubning “Gulshan ul – muluk” (“Podshohlar gulshani”) asari ham mang‘itlar sulolasining dastlabki davri bo‘yicha muhim manbadir. Uning “Gulshan ul-mulk” asari fors tilida yozilgan bo‘lib, Sharq tarixida islomning dastlabki yillaridan to amir Nasrullo gacha (1827 – 1831), aniqrog‘i, 1831 – yilgacha bo‘lgan davrini o‘zida aks ettiradi. Asarda shayboniyalar, ashtarxoniyalar va mang‘itlar davriga mos ravishda boblar qo‘shilgan. Asosiy e’tibor mang‘itlar davrini yoritishga qaratilgan. Tarixchi – manbashunos olim O‘. Sultonovning yozishicha, “Gulshan ul-mulk” asarining ikki tahriri ma’lum bo‘lib, birida amir Haydar hukmdor ekanligi muqaddimada keltirilgan. Ikkinci tahrirda esa Buxoro hukmdori sifatida – amir Nasrullo tilga olinadi. Asarda Buxoro mang‘it hukmdorlarining kelib chiqishi, ajdodlari, mang‘itlarning hokimiyatga kelishi bilan bog‘liq boshqa manbalarda uchramaydigan ma’lumotlar, shuningdek, Buxoro amirlaridan Doniyorbiy, Shohmurodbiy, Haydar va Nasrullo davridagi siyosiy voqealar muallifning ko‘rganlari asosida yozilgan. Mazkur asar hali o‘zbek yoki rus tiliga tarjima qilinmagan”.

Muhammad Ya’qubning yana bir boshqa – “Tarix-i amiron-i mang‘itiya” (“Mang‘it amirlarining tarixi”) nomli asari ham mavjud bo‘lib, unda Buxoro xonligida mang‘itlar sulolasining hokimiyat tepasiga kelgan vaqtidan to 1830 yilgacha sodir bo‘lgan tarixiy voqealar bayon etilgan. Bu asar o‘z mazmuniga ko‘ra, “Gulshan ul-mulk”ning oxirgi qismi bilan uzviy bog‘langan bo‘lsa-da, ularning har biri ikkinchisini o‘zida uchramaydigan tarixiy ma’lumotlar bir – birini to‘ldiradi.

Muxtasar aytganda, kelgusida tarixshunosligimiz va adabiyotshunoslismizda Muhammad Ya’qub Buxoriy hayoti, faoliyati va ijodini tadqiq etish taqozo etiladi. Bu esa o‘zbek adabiyoti tarixi va mamlakatimiz tarixini yangi ma’lumotlar bilan boyishiga xizmat qiladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-m/muhammad-yaqub-buhoriy-uz>
2. Ayniy S. Namunai adabiyoti tojik. Dushanbe: Adib, 2010. – B.180-182.
3. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. T.: O‘qituvchi, 1994.-B.25.
4. “Vakfname Daniyal-biy atalika”. Perevod s arabograficheskogo tadjikskogo yazyla, vvedenie i primechaniya B.A.Kazakova. T.: “PENESSANS”, 2023.-B.102.
5. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7731239>

6. <https://telegra.ph/Amirzoda-%D1%9EIkashunosning-Buhoraga-oid-tad%D2%9%Bi%D2%9Boti-10-10>
7. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-m/muhammad-yaqub-buhoriy-uz>
8. Muhammad Ya'qub ibn Amir Doniyolbiy Otaliq. Gulshan ul-mulk.O'zR FA ShI. Qo'lyozmalar raqamlari: №12,1507/3, 7420.
9. O'zbekiston tarixiga oid manba va tadqiqotlar.(XIX-XX asr boshlari). Mas'ul muharrir: D.Ziyaeva. T.: "Nurafshon business", 2022.-B.2022.-B.40.
10. Zamonov A., Egamberdiev A. Buxoro amirligi tarixi (XVIII asr o'rtalari – XIX asr o'rtalari). T.: Tamaddun, 2022.-B.32.
11. Muhammad Ya'qub ibn Amir Doniyolbiy Otaliq. Tarix-i amiron-i mang'itiya.O'zR FA ShI. Qo'lyozma raqami:№4330//VI
12. Muhammadhakimxon To'ra. Muntaxab at- tavorix.-Toshkent: Yangi asr avlod, 2010.-B.31.
13. Qorayev Sh. O'zbek xonliklarida adabiy kechalar (Muhammad Shayboniyxon va shayboniylar davri misolida). -T.: "LESSON –PRESS", 2022.-B.114.
14. Qorayev Sh. O'rta asr manbalarida o'zbek xonliklari adabiy kechalari tarixi (Muhammad Shayboniyxon va shayboniylar davri misolida). -Qarshi: "Intellekt", 2023.-B.148.
15. Qorayev Sh. Shayboniy sultonlar tazkirasi. Monografiya. -Qarshi: Intellekt, 2023.-B.206.
16. Qorayev Sh. O'zbek sultonlari tazkirasi. Monografiya.-Qarshi: Ilm-fan va ma'naviyat, 2024.-B.264.